



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**BUYRUQ**

2023 yil "14" mart

3 - sonli

Nukus shahri

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xojaligi vazirligining  
2023-yil 13-martdagi 46-son buyrug'ini ta'minlash maqsadida**

"Navro'z" umumxalq bayramini munasib nishonlash hamda muborak Ramazon oyini qarshi olishga tayyorgarlik ko'rish hamda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi mahallalar turar joylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish doirasidagi mahallalar, aholi turar joylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini davom ettirish, sog'lom turmush tarzi hamda sanitariya-gigienik madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 13-martdagi 46-sonli buyrug'i ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-martdagi 91-F-sonli hamda 2023-yil 10-martdagi 111-F-sonli farmoyishlari ma'lumot uchun qabul qilsin

3. Vazirlik apparati va tuman Qishloq xo'jaligi bo'linma rahbarlari 2023-yilning 18-mart kuni "Obod va fayzli mahalla-yurt ko'rki" shiori ostida umumxalq hayriya hashari o'tkazsin.

4. Vazirlik apparati va tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi rahbarlari joriy yilning 18-mart kun umumxalq hayriya hasharini o'tkazish doirasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutsinlar.

Quydagilar;

O'z tasarrufidagi, binolari atrofini, hududlardagi bog' va hiyobonlar, sport maydonchalarini tartibga keltirish, ariqlar va zovurlarni tozalash, hududlarida daraxtlarni oqlash va butash, ko'cha va yo'laklarni tartibga keltirish, qurilish obodonlashtirish ishlari jarayonida to'plangan chiqindilarni tashkiliy ravishda maxsus belgilangan joylarga olib chiqarish.



**“Mahallamga 10 tup daraxt mening tuhfam”** shiori ostida barcha turar-joy mavzelari va mahallalarda iqlim sharoitiga mos gul ko‘chatlari, mevali va manzarali daraxtlar ekish, daraxtlarni oqlash;

O‘zlari homiyliklaridagi himoyaga muhtoj keksalar, pensionerlar va nogironlar, yolg‘iz keksalar, kam ta‘minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish;

Joylarda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari o‘tkazilish jarayoida to‘plangan chiqindilarning mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan alohida belgilangan joylarga olib chiqilishini ta‘minlash;

Obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish qatnashchilarini zarur anjomlar bilan ta‘minlash;

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga “O‘zbekiston Respublikasi majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 10-maydagi 349-son qaroriga muvofiq umumxalq hasharini mehnat muhofazasi va texnika xavfszligi qoidalariga qat‘iy rioya etilgan holda o‘tkazilsin;

Umumxalq hashari doirasida bo‘lmagan boshqa turdagi jamoat ishlari, shu jumladan, qurilish-ta‘mirlash va qishloq xo‘jaligi ishlariga majburiy jalb etishga qat‘iy yo‘l qo‘yilmagan holda obodanlashirish, ko‘kalamzorlashtirish, ish o‘rinlarini tartibga keltirish ishlarini amalga oshirish;

bajarilgan ishlar to‘g‘risida vazirlikning Ishchi guruhiga ma‘lumot taqdim etsinlar.

5. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamga qoldiraman.

Vazir



*Z.Ziyadullaev*

**Kiritildi:**


Xodimlar bilan ishlash bo'yicha  
bosh mutaxassis v.v.b



A.Turdimova

**Kelishildi:**

Vazirning birinchi  
o'rinbosari



F.Nurmuhhammadov

Bosh yuriskonsult



K.Otegov

Bosh hisobchi



A.Genjebaev

**Buyruq bilan tanishdim**

---

**Qoraqalpogiston Respublikasi  
Qishloq xojaligi vazirligining  
2023-yil 14-martdagi  
3-buyrug'iga 1-ilova**

**Vazirlik apparati hamda tuman qishloq xojaligi bolimlarida 2023-yilning 18-mart  
Obod va fayzli mahalla-yurt ko'rki shiori ostoda umumxalq xayriya hasharin  
otkazilishi boyicha tuzilgan ishchi guruhi**

Vazirning birinchi  
o'rinbosari

F.Nurmuhammadov

Vazirning  
orinbosari

E.Edenbaev

Vazirning  
orinbosari

Q.Bekbergenov

Boshlang'ish kasaba uyushmasi raisi

M.Qurbaniyazov

Bosh mutaxassisi

D.Kudiyarov

Xo'jalik bo'lim boshlig'i

A.Ibragimov